

## O'zbekiston tarixi davlat muzeyi fondidan: tosh stelalar

O'zbekiston shimolidan topilgan VII-VIII asrlarga tegishli tosh stelalar hozirda O'zR FA O'zbekiston tarixi davlat muzeyida saqlanadi. O'rta asr davri ko'chmanchilar madaniyati ravnaqi turklarning monumental yodgorliklar san'atida o'z ifodasini topgan.



Ushbu tosh stelalar orqali o'z dunyoqarashini ifoda etishni istagan, ma'naviy qadriyatining atrofdagi o'zga aholi madaniyatidan alohidaligini ta'kidlamoqchi bo'lgan ko'chmanchilar ichki olami yorqin ifodasini topgan deb aytish mumkin. Turklar yaratgan diniy yodgorliklar ularning o'ziga xos tafakkurini, makon va zamondagi o'zligini namoyon etib turadi. U asosan ko'chmanchilar dunyoqarashini ifoda etib, o'z atroflaridagi mahalliy aholidan farqlanuvchi ichki olamini yorqin tarzda aks ettirishga intilgan. Turli yoshdagi odamlarni tasvirlovchi yirik haykallar bo'lib, ular chehralari va gavda tuzilishlari nihoyatda soddaligi bilan farqlanadi hamda yaxlit xarsang toshlardan yasalgan. Tosh stelalar ajdodlar dini bilan bog'liq turk madaniyati yodgorliklaridir. Bu buyumlar halok bo'lgan jangchilar qabrlari ustiga tikka qilib qo'yilgan. Tosh haykallar g'arbda Dnestrdan tortib, sharqda Oltoy va Mo'g'ulistongacha rasm bo'lgan. Sibir, Kavkaz, Qozog'iston, O'rta va Markaziy Osiyo, Yevropaning shimoli — g'arbi va Afrikada ham uchraydi.